
Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy Psixologiya  
yo‘nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insonni harakatga keltiruvchi kuch motiv va motivlar yig‘indisi bo‘lmish motivatsiya haqida so‘z boradi shuningdek, talabalarlarning muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan motivatsiyasi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Motiv, motivatsiya, ehtiyoj, Abraham Maslou, S.L.Rubinshteyn.

Dunyoga kelib, yashab qolish uchun intilayotgan har bir individ hayotining ilk kunlaridan boshlab oldinga intila boshlaydi. U bajarayotgan har bir harakat, ehtiyojlaridan kelib kelib chiqayotgan ichki va tashqi turtki, motiv natijasida yuzaga keladi. Inson faoliyati turli motivlar yig‘indisi mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Jamiyat a’zosi bo‘lgan har bir individ o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib faoliyatga kirishida va bu normal holat.

Keling avvalo fikrlarni umumlashtirish maqsadida “Motiv”, “Motivatsiya” va eng birinchi navbatda ehtiyojga to‘xtalib o‘tsak.

Individ o‘sib ulg‘ayishi davomida turli narsalarga ehtiyoj sezsa boshlaydi. Ilk bolalik chog‘larida nisbatan oddiy, fiziologik ehtiyojlarini qondirishga intilgan individ ulg‘ayib borishi bilan ehtiyojlar safi ham kengayib boradi. Endi u ijtimoiy, moddiy, ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga zarurat sezsa boshlaydi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish maqsadida yuzaga kelayotgan turtki– bu motivdir. Bir ehtiyojniqondirish maqsadida yuzaga kelayotgan bir qancha motivlar yig‘indisi–bu Motivatsiya hisoblanadi.

Gumanistik psixologiyaning asosiy vakillaridan biri bo‘lgan Abraham Maslouning Ehtiyojlar ierarxiyasi bu boradagi eng yaxshi nazariyalardan biri hisoblanadi. Maslou o‘z nazariyasini piramida shaklida tasvirlab berdi va uni quyidagicha jaoylashtirdi:

### Abraham Maslou ierarxiyasi:

- Fiziologik ehtiyojlar:** oziq-ovqat, uy-joy, ro‘zg‘or buyumlari, birlamchi ehtiyojlarini qondirish vositalari va boshqalar;
- Xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj:** kafolatli ish, barqaror ish haqi, pensiya ta’minati va shu kabilar;
- Ijtimoiy guruhg‘a mansublik:** boshqa kishilar bilan munosabatga kirishishga, jamiyat tomonidan e’tirof etilishga, do’stlik, oilaviy rishtalarni bog‘lashga bo‘lgan ehtiyoj;



**4. Hurmat va e'tiborga bo'lgan ehtiyoj:** kasbiy malakasini oshirish, o'zgalar tomonidan tan olinish, etirof etilish, qilayotgan xizmatlari jamiyatga naf keltirayotganligini his qilish, ishda mustaqillik kabi bir qator ehtiyojlar:

**5. O'z-o'zini namoyon etish ehtiyoji:** insonning o'z yashirin imkoniyatlarini haqiqatga aylantirishga bo'lgan, o'zlikni anglash va namoyon etishga bo'lgan ehtiyoji

Piramidaning o'ziga xos bir jihat shundan iboratki, qo'llanilishiga ko'ra fiziologik ehtiyojlar birlamchi pog'onada tursa, daraja bo'yicha esa, o'z-o'zini anglash, namoyon qilish istagi oliy o'rinda turadi. Abraham Maslou fikriga ko'ra inson eng avvalo birlamchi ehtiyojlarini qondiradi va keyingi qadamga o'tadi. Quyi ehtiyojlari qondirilmagan inson uchun keyingi qadamdagi ehtiyojning ahamiyati yo'q deb tushuntiradi u.

Ilk bolalik davrida bolaning ehtiyojlari sodda ko'rinishda bo'ladi. Uning uchun birlamchi ehtiyojlarni qondirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bolada motivlar turli-tuman bo'ladi va bu tez-tez almashinib turadi. Bu borada sovet psixolog S.L.Rubinshteyn shunday deydi: "Bevosita bolaga ta'sir etuvchi har bir qo'zg'atuvchi (qo'zg'ovchi) ilk bolalik davrida uning o'sishida hukmronlik qiladi. Chunki undagi ichki motivlar hali mustahkam emas, shuning uchun har xil vaziyatda bola boshqa qo'zg'atuvchi hukmronligiga tobe bo'lib qolishi mumkin. Shu boisdan beqaror, kuchsiz, betartib motivlar xuddi shunday xatti-harakatga bog'liq [1].

Bola o'sib borishi bilan uning ehtiyojlari va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi turtki-motivlari ham o'zgarib, kengayib boradi.

Xo'sh birlamchi ehtiyojlari qondirilgan, shaxs bo'lib shakllanayotgan yoki allaqachon shaxs bo'lib shakllangan insonlarda aniq bir motiv ustunlik qiladimi? Ularda o'z-o'zini namoyon qilish xohishi qay darajada? Hukmron motiv ostida maqsad sari intilish ehtiyoji bormi? Shular va shu kabi savollarga javob olish maqsadida yoshlarning muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini o'rganishga qaror qildik. Bunda biz "Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi" dan foydalandik. Tadqiqot ob'yekti sifatida oliy ta'lim muassasasi talabalaridan foydalandik. Tadqiqot maqsadi: yoshlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi qanchalik rivojlangan. Oliy ta'lim talablarining muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi o'rtasida farq mavjudmi, mavjud bo'lsa, qaysi guruhda ustun? Jinsiy tafovutchi, mavjudmi?... Ushbu masalalarni aniqlash.

Umumiy natijalar tahliliga ko'ra:



- Talaba qizlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi 22,7 ballni tashkil etgan;
- O‘g‘il bolalarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi 21 ballni tashkil etgan.

Umumiy natijalar tahliliga ko‘ra shunday xulosa qilish mumkinki talaba yoshlarda muvaffaqiyatga bo‘lgan motivatsiya o‘ta yuqori darajada.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Artur Vladimirovich Petrovskiy “Umumiy psixologiya” darslik.
2. Ergash G‘ozievich G‘oziev “Umumiy psixologiya” darslik.
3. Vasila Karimova “Ijtimoiy psixologiya”.
4. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi nizomi. 2005-yil.
5. “Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi”





“Маҳасин ал-шария” асарида келтирилган фикҳий қоидалар таҳлили

Хакимова Н.А.

Ўзбекистон халқаро ислом академияси Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш ICESCO кафедраси ўқитувчиси

+998909320082

[nigora\\_24@yahoo.com](mailto:nigora_24@yahoo.com)

Манбаларда фикҳий қоидалар фикҳ илмининг руҳи, дейилган<sup>1</sup>. Каффол Шошийнинг “Маҳосин ал-шария”<sup>2</sup> асарини тадқиқ қилиш жараёнида, фикҳий қоидаларнинг манбада тарқоқ ҳолда мавжуд эканлигини гувоҳи бўлдик. Қуйида мазкур фикҳий қоидаларнинг баъзиларини қўриб чиқишга ва уларни лавзий жиҳатдан икки манба, яъни маҳосин асарининг Оксфорд қўлёзмаси<sup>3</sup> ва асарнинг Али Самак тамонидан 2007 йилда таҳқиқ қўринишида нашри<sup>4</sup> асосида қиёсий таҳлил қилишга ҳаракат қилдик. Тадқиқотимиз давомида Оксфорд қўлёзмаси асосий манба сифатида танлаб олинди.

## 1. أن الله خلق الخلق ليعبده و ركب فيهم العقول ليعرفوه

“Аллоҳ мавжудотларни (*инсонларни*) ўзига ибодат қилиш учун яратди, улар Аллоҳни танишлари учун уларга ақл берди”<sup>5</sup>.

“Маҳосин” асарида мақсадлар ҳақида гап борар экан, уларнинг энг аввали ва асосийси яъни, мавжудотларнинг яратилишидан бирламчи мақсад Аллоҳга ибодат қилиш эканлигига урғу берилади. Мавжудотлар орасидан эса, Аллоҳни таниш (англаш) учун уларнинг баъзиларига ақл берилди, дейиш билан албатта инсон назарда тутилмоқда. Каффол Шошийнинг “инсон бу ақл ато қилинган тирик мавжудотдир” қабилидаги қараши ўз ибтидосини Арасту анъаналаридан олганлиги шубҳасиз. Бу фалсафий қоиданинг шарҳсиз келтирилиши,

<sup>1</sup> X. Аминов, С. Примов. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. Мовароуннаҳр, Тошкент, 2017 Б.260.

<sup>2</sup> Каффол Шоший ислом илмларига оид бир қанча китоблар муаллифи. Муаллифнинг бошқа асарлари ҳақида маълумот олии учун қаранг: Мухамедов, Н. А. (2014). *Хазрат Имам Абу Бакр Каффал Шаши – муҳаддис из Ташкента. Peoples of eurasia. history, culture and interaction problems*, 130.

[http://www.sociosphere.com/files/conference/2014/k-04\\_05\\_14.pdf#page=130](http://www.sociosphere.com/files/conference/2014/k-04_05_14.pdf#page=130)

<sup>3</sup> Oxford University, Bodleian Library, Ms Huntington 259 (мақоладаги иқтобосларда “Маҳосин” шаклида берилади)

<sup>4</sup> Каффол Шоший. *Маҳосин ал-шария*. – Ливан.: Дар ал-кутуб ал-илмийя, 2007 (мақоладаги иқтобосларда “Али Самак” шаклида берилади)

<sup>5</sup> Маҳосин, 76-а; Али Самак, Б.29. (лафзий фарқлар мавжуд эмас)



муаллифнинг юонон фалсафасидан қай даражада таъсирланганидан далолат беради. Шу билан бирга, илоҳиёт анъанасига мансуб тарзда инсон ақл ва таъблардан иборат эканлиги ҳақидаги таъриф қуидаги жумлада ўз ифодасини топган:

و إنما يقع هذا الاختلاف لاختلاف الطبائع الناس و تفاوتهم في العقول

яъни, “... мазкур ихтилоф инсонларнинг таъблари турли эканлиги ва уларнинг (ўзаро) ақлдаги тафовутлари туфайли содир бўлади”<sup>6</sup>. Фиқхий мавзуларнинг ёритилишида ижтимоий ва хуқуқий муносабатларнинг субъекти ҳисобланган инсонга таъриф бериш аҳамиятлидир. Ижтимоий муносабатларни тартибга солишда, хуқуқий оқибатларни тўғри баҳолашда мазкур муносабатлардаги субъект мавзуси ҳар томонлама ўрганиш жуда муҳимдир.

## الله يحل و يحرّم لمنافع عباده و استصلاحهم

“Аллоҳ ўз бандаларининг фойдаси ва уларнинг манфаати учун баъзи нарсаларни ҳалол ва баъзиларини ҳаром қилди”<sup>7</sup>;

Илоҳий меъёрлар инсон манфаатини (*маслаҳа*) кўзлаши лозим, деган қараш X аср шофеъий уламоларининг хуқуқ назарияси борасидаги фикрларининг марказида турган. Мазкур қараш шариат кўрсатмаларининг ақлга мувофиқ эканлигини, шунингдек қиёсни амалиётга татбиқ этишни тушунтириб беришга хизмат қилган. Шунга қарамасдан, *маслаҳа* концепцияси ўзининг ибтидосида фақатгина назарий қарашлар тизими сифатида сақланиб қолиб, хуқуқий жиҳатдан асослашнинг амалий услуби сифатида қўлланилмаган. Мантиққа зид равишда, *маслаҳанинг* шофеъий уламолари орасидаги қиёс услубининг асоси - методологияси сифатидаги тизимли татбики мўътазилийларнинг инқирози ва ашъарийя йўналишининг муваффакиятидан сўнг бошланди<sup>8</sup>.

Қаффол Шошийнинг фикрича, хуқуқий қоидалар замиридаги сабабнинг (*илла*) ўзи асосий сабаб<sup>9</sup> туфайлигина мавжуддир, у ҳам бўлса, инсон манфаатидир (*маслаҳа*). Мазкур қарашнинг асосий изохи шундаки, илоҳий қонунларнинг инсон манфаати учун хизмат қилиши улар замирида яширинган

<sup>6</sup> Маҳосин, 76-а; Али Самак, Б.29.

<sup>7</sup> Маҳосин, 83-а. (лағзий фарқлар мавжуд эмас)

<sup>8</sup> Ahmed El Shamsy. *The Wisdom of God's Law: Two theories // Islamic Law in Theories*. – Leiden-Boston, 2014. P.19.

<sup>9</sup> Маълул бил иълла ал-аъмма



ҳикматнинг бир кўринишидир. Қонуннинг мазмуни сабаблар туфайли, яъни инсон манфаатини қўзлаган ҳолда юзага келган деган қараш X асрда мусулмон дунёсида мавжуд бўлган қўйидаги ҳолатларни кўриб чиқиши тақозо этади<sup>10</sup>:

1. Илоҳий қонунлар инсон манфаатини қўзлайди деган қараш ақидавий масалаларнинг муҳокамасида муҳим аҳамият касб этган, яъни бундай қараш илоҳий қонунга итоат қилиш шарт эканлигини осон тушунтириб берган.

2. Илоҳий қонуннинг манфаатни кўзловчи табиати ҳақидаги қараш ўша даврда ислом динининг ғайридин олимлар тамонидан танқид қилинишига асосли “жавоб” вазифасини бажарган. Қаффол Шошийнинг қўйидаги сўзлари фикримизни кувватлайди: “...Хукмларнинг ҳикмати ва сабаби ҳақида сўрайдиган инсонларнинг саволларига жавоб тариқасида ўз фикрларимни баён этдим”<sup>11</sup>. “Маҳосин аш-шария” асарининг ёзилишидан қўзда тутилган асосий мақсад ҳам, илоҳий кўрсатмаларнинг ақлга мувофиқ эканлиги ҳақидаги қарашни ҳимоя қилиш орқали юқоридаги танқидларга қарши туриш, ҳамда илоҳий меъёрлар тўлалигича “мукаммал бошқарув<sup>12</sup>” тамойили асосида эканлигини кўрсатиб бериш эди.

3. Илоҳий кўрсатмалар замирида инсон манфаатларининг ётиши, қиёс методидан унумли фойдаланишда умумий ўлчов - меъёр вазифасини ўтаган десак муболаға бўлмайди. *Маслаҳа* тамойили X аср ислом хуқуқшунослари томонидан қиёс ҳақиқий эканлигини аниқлашда восита вазифасини бажарган. Лекин, *маслаҳа* тамойили у даврда фақат назарий аҳамият касб этган бўлиб, амалда ундан фойдаланилгани ҳақида бирор маълумотга дуч келмадик. Қаффол Шоший ҳам “Маҳосин аш-шария” асарини янги қоидаларни яратиш мақсадида эмас, балки, ислом дини ва унинг кўрсатмалари ҳақидаги танқидларга муносиб раддия бериш мақсадида ёзган. У ўз асарида “Мусулмон кишиларнинг ақллари англаши учун мазкур хукмларни ўша маънолар (*манфаатлар*) билан боғлаб тушунтириш жоиз<sup>13</sup>” дея, айтиб ўтади. Бу даврда маслаҳа кўпроқ ақидавий масалаларда назарий шаклда қўлланилган бўлса ҳам, лекин қиёс жараёнидаги умумий асос сифатида ҳали тўла шаклланиб улгурмаган эди. Ашъария йўналишида ақидавий баҳсларда ақл воситасидан фойдаланиш маълум маънода чекланганидан сўнг,

<sup>10</sup> Xakimova, Nigora (2018) "REFLECTION OF HUMAN BENEFIT IN THE LEGAL THOUGHTS OF QAFFAL SHASHI," *The Light of Islam*: Vol. 2018 : Iss. 1 , Article 9.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iau/vol2018/iss1/9>

<sup>11</sup> Али Самак, Б.17

<sup>12</sup> Ал-сияса ал-фодила.

<sup>13</sup> Иннама ҳия маъянин яксузу аън тааллақа тилка ал-аҳкам би-ҳа ҳамта тақруба мин уъқул ал-мутаъаббидин.



маслаҳа тамойили ақидавий йўналишдан, ислом ҳуқуқи - фикҳ йўналишига ўтади. Бу эса, ислом ҳуқуқи асосларининг ривожида X аср шофеий уламоларининг, хусусан, Қаффол Шошийнинг улкан хизматлари борлигини кўрсатади.

### 3. ولا شك أن أولى الأشياء بالتحريم و الحظر ما كان ضارا غير نافع و احدهما بالتحليل و الإباحة ما كان نافعا غير ضار

“Шубҳасиз, ҳаром қилинган ва ман қилинган нарсалар заарли ва фойдасизdir, ҳалол ва мубоҳлари эса, фойдали ва заарсиздир”<sup>14</sup>;

Юқоридаги қоида ҳам диний таъкиқ ва рухсатларнинг барчаси инсонни заардан ҳимоя қилиш ва унинг фойдасини қўзлаган ҳолда жорий этилган, деган мазмунни ўзида жамлайди. Гап шундаки, тадқиқотимиз давомида биз Оксфорд кўллёзмаси билан Али Самак таҳқиқ қилган, 2007 йил нашр қилинган “Маҳосин” китобини солиштириб бордик ва деярли ҳар бир жумлада фарқларга дуч келдик. Али Самакнинг таҳқиқида бу қоида қўйидагича берилганини кўришимиз мумкин:

لا شك أن أولى الأشياء بالتحريم و التحظر ما كان غير نافع و اخفها بالتحليل و الإباحة ما كان نافعا غير ضار

### 4. جميع الشرائع معلومة المعانى في الجملة و العموم

“Шариатнинг барчаси хусусий ва умумий (мавзулардаги) маънолар (*мақсадлар*) ҳақидаги билимдир”<sup>15</sup>;

Асарда ҳикмат, маъно, ва мақсад сўзлари бир маънода, синоним тарзида кўлланилганини кўриш мумкин. Уламолар мақсад сўзига таъриф берганда, “у шаръий меъёрларни жорий қилишнинг барча ҳолатларида Аллоҳ томонидан белгиланган маънолар ва ҳикматлар”, деб таъкидлайдилар.

Кўйида асарда мавжуд бошқа фикҳий қоидаларни ҳам келтириб ўтиш билан бирга шуни ҳам таъкидламоқчимизки, мазкур мавзуу соҳа мутахассисларининг фикр мулоҳазалари учун очиқ. Илмий анжуманларнинг асосий мақсадларидан бири ҳам илмий соҳа вакилларининг ўз тадқиқотлари борасида ўзаро фикр алмашишлари эканлигини унутмаслик жуда муҳим.

### الله تعالى عرف عباده أنه إنما تبعدهم باستصلاحهم بالشرع 5.

<sup>14</sup> Maҳosin, 81-б; Али Самак, Б.213(лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда):  
(لا شك أن أولى الأشياء بالتحريم و التحظر ما كان غير نافع و اخفها بالتحليل و الإباحة ما كان نافعا غير ضار

<sup>15</sup> Maҳosin, 6-б; Али Самак, Б.28 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)



Аллоҳ ўз бандаларига шариат қўрсатмалари орқали уларни ибодатга буюрганлиги бандаларга манфаатли бўлишини билдирид<sup>16</sup>;

### **٦. إن الشرائع كلها في أصولها المختلفة عقلية ولو وقعت على غير ما هي عليه لخرجت عن الحكمة والصلاحية**

“Шариатнинг барча қўрсатмалари ўзининг турли тарздаги усули билан ақлга мувофиқ келади, агар бу ҳолатдан ташқарига чиқилганда эди, ҳикмат ва фойдадан ташқарига чиқилган бўларди”<sup>17</sup>;

### **٧. و جرى الأمر في وجوهه و جهاته على وفاق العقول و العادات في السياسات الفاضلة**

“Иш ўзининг барча томонлари билан ақлга ва “фозил сиёсат” даги урф-одатларга мувофиқ бўлди”<sup>18</sup>;

### **٨. هذه معانى معقولة في العادات و المعرف مقبولة في العقول السليمة**

“Булар соғлом ақл қабул қиласидан урф-одат ва билимлардаги мантиқий мазмунлардир”<sup>19</sup>;

### **٩. في اعتقاد عل الشرياع أنها مصالح في الجملة**

“Шариат қўрсатмаларининг мақсади (иллати) умуман олганда манфаат (яхшиликлар) эканлигига ишонч комилдир”<sup>20</sup>;

### **١٠. الشارع مستصلح حكيم و معارف مقبولة هذا فهو قدح في أصل الدين**

“Шориъ (Аллоҳ) инсон манфаатини кўзловчи, Ҳаким Зотдир, бу маънодан ташқаридаги барча тушунчалар дин аслининг қадрини туширишдир (ёмон отлиқ қилишдир)”<sup>21</sup>;

### **١١. ولما كان في الشرياع هذا الصلاح الواضح كان أولى ما تعلقت به الشريعة هو تعظيم العبد لمالكه**

“Шариат қўрсатмаларида шундай очиқ тўғрилик бор, шариат энг аввал жорий қилган нарса банданинг ўз Хожасига таъзим қилиши бўлди”<sup>22</sup>;

### **١٢. لثبوت الحجة بان الشارع مستصلح حكيم**

<sup>16</sup> Али Самак, Б.34

إن الشرائع كلها المختلفة عقلية ولو وقعت على غير ما هي عليه لخرجت عن الحكمة والصلاحية

وجريان الأمر في وجوهه و جهاته على وفاق العقول و العادات في السياسات الفاضلة

هذه معانى معقولة في العادات و معارف مقبولة في العقول السليمة

(وفي اعتقاد عل الشرياع أنها مصالح في الجملة: ماخوسин, 9-б; Али Самак, Б.34 (лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда:

20 ماخوسин, 9-б; Али Самак, Б.34 (лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда:

21 ماخوسин, 9-б; Али Самак, Б.34 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)

ولما كان في الشرياع الصلاح الواضح كان اول ما تعلقت به الشريعة هو تعظيم العبد لمالكه



“Шореъ инсонларнинг фойдасини кўзловчи ва Ҳаким Зот эканлигига хужжатнинг событлиги”<sup>23</sup>;

### **من تأمل هذه المعانى و اتساقها علم أن مصدر هذه الأحكام من عند حكم الحكماء . 13.**

“Кимки мазкур маънолар (мақсадлар) ва уларнинг изчиллиги ҳақида ақл юритса, бу ҳукмларнинг асоси ҳакимларнинг энг Ҳакими хузуридан эканлигини билади”<sup>24</sup>;

### **تحت هذه المقادير في اتفاقها و اختلافها معانى صحيحة متعلقة بالحكمة البالغة 14.**

“Ушбу миқдорларнинг мутаносиблиги ва номутаносиблиги замирида буюк хикмат билан боғлиқ ҳақиқий маънолар (мақсадлар) мавжуд”<sup>25</sup>;

### **والعقوبات عن الجرائم واجبة في العقول 15.**

“Жиноятлар(нинг олдини олиш) учун уларга жазо тайинлаш ақл орқали вожибdir”<sup>26</sup>;

### **العقلاء كلهم محجوجون بعقولهم 16.**

“Оқилларнинг барчаси далилларга ўз ақллари орқали ишонадилар”<sup>27</sup>;

### **مذاهب الفقهاء في الجملة لا ينكرون توسيعاً في استنباط المعانى 17.**

“Фиқхлар (фиқҳий) мазҳаблари, умуман олганда, маъноларни кенгайтирилган ҳолда истинбот қилишни инкор қилмайдилар”<sup>28</sup>;

### **الشريعة موضوعة للناس استصلاحا لهم 18.**

“Шариат инсонларнинг фойдаларини кўзлайдиган концепциядир”<sup>29</sup>;

### **الشرع لم يجب لاعيانها بل بوضع واضع ايها استصلاحاً لعباده 19.**

“Шариат кўрсатмалари ўзининг аслиятига кўра вожиб қилинмаган, балки бандаларнинг фойдаларига ишлаш учун таъсис этилган”<sup>30</sup>;

### **العدل و أداء الأمانة والقيام بالنصيحة خصال عقلية 20.**

<sup>23</sup> Маҳосин, 9-б; Али Самак, Б.34 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)

<sup>24</sup> Маҳосин, 62-б; Али Самак, Б.170 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)

<sup>25</sup> Маҳосин, 66-а; Али Самак, Б.178 (лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда: صحيحة متعلقة بالجملة البالغة)

<sup>26</sup> Маҳосин, 80-а; Али Самак, Б.188 (лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда: مذاهب الفقهاء في الجملة لا ينكرون في استنباط

<sup>27</sup> Маҳосин, 76-а; Али Самак, Б.200 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)

<sup>28</sup> Маҳосин, 101-а; Маҳосин, Б.261(лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда: مذاهب الفقهاء في الجملة لا ينكرون في استنباط المعانى)

<sup>29</sup> Маҳосин, 112-а; Али Самак, Б.284 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)

<sup>30</sup> Маҳосин, 112-а; Али Самак, Б.284 (лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда: الشرائع لم يجب لاعيانها بل بوضع الواضع ايها استصلاحاً للعباد)



“Адолат, омонатдорлик ва насиҳат қилиш бу ақлий фазилатлардир”<sup>31</sup>;

إغراء بالمضار ثبت في العقول السليمة أن ترك السياسة العامة و الخاصة إمراج و إفساد و 21.

“Умумий ва хусусий сиёсатни тарқ этиш бошбошдоқлик, бузғунчилик эканлиги ва заарага етаклаши соғлом ақл билан исботланган”<sup>32</sup>

المقارنة على الفساد خروج عن الحكم و ترك الشرائط السياسية الفاضلة و السنة العادلة 22.

“Фасод устига қурилган манзил/қароргоҳ ҳикматдан ташқарига чиқиш, фозил сиёсат ва адолатли суннат шартларини тарқ қилиш демакдир”<sup>33</sup>;

و ان استوت المعاني في الجرائم استوت العقوبات 23.

“Жиноятларнинг маъноси (мақсади) ўзгарса, жазолар ҳам ўзгаради”<sup>34</sup>;

و إنما حرمت الأشياء امتحانا من الله لعباده 24.

“Нарсалар Аллоҳ томонидан бандаларга имтиҳон ўлароқ ҳаром қилинган”<sup>35</sup>;

<sup>31</sup> Маҳосин, 186-а; Али Самак, Б.446-447 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)

<sup>32</sup> Маҳосин, 227-б; Али Самак, Б.545 (лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда: (و الخاصة إمراج و إفساد و أغراها لمضار

المفازة على الفساد خروج عن الحكم و ترك الشرائط السياسية الفاضلة و السنة العادلة

<sup>34</sup> Маҳосин, 246-б; Али Самак, Б.590 (лафзий фарқлар мавжуд, Али Самакда: فإذا استوت المعاني في الحرام استوت العقوبات

<sup>35</sup> Маҳосин, 86-а; Али Самак, Б.225 (лафзий фарқлар мавжуд эмас)





## РОЛЬ ОДЕЖДЫ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Хафиза Холикова Вохидовна

Ферганский государственный университет,  
преподаватель факультета иностранных языков

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль одежды в жизни человека, ее происхождение и историческая необходимость. Также в статье мы предоставили информацию о видах и формах одежды, ранних формах одежды, исторической одежде.

**Ключевые слова:** эстетический потребность, духовная культура, эстетика, социальное прохождение.

Изучение национального костюма, как и других сфер жизни народа, тесно связано с реализацией этнической истории и культуры каждого народа, его взаимодействиями с другими народами. Он входит в число материальных и духовных памятников народа. Это также критерий, отражающий национальную идентичность и демонстрирующий этнические особенности. В этом смысле изучение истории одежды дает много сведений о богатом культурном наследии народов, живущих на земле тысячи лет, а также о традициях и быте.

Не только платья удовлетворяют естественные и эстетические потребности человечества, в то же время они отражают традиции каждого народа, некоторые элементы мировоззрения, религиозных верований, утонченность и эстетические нормы. Кроме того, одежда отражает место и время, в котором жил человек, его жизненный тонус, счастливые или печальные события.

Одежда является составной частью материальной и духовной культуры общества. С одной стороны, как продукт человеческого труда, оно имеет определенную материальную ценность и удовлетворяет определенную потребность, с другой стороны, является прикладным и декоративным искусством, дает сведения об историческом периоде, природно-климатических условиях местности, страны, национальные особенности народа и его представление о красоте.

Хотя понятия одежды и платья кажутся по сути схожими, между ними есть некоторые отличия. Под одеждой подразумеваются, прежде всего, вещи, защищающие и закрывающие различные части тела человека. Есть много видов одежды. Это: нижнее белье, верхняя одежда, носки разной длины, обувь,



головные уборы. Эти предметы вместе с аксессуарами, украшениями, прическами и макияжем составляют платье.

Основные виды и формы платьев. Одни исследователи говорят, что одежда появилась из-за чувства стыда, другие говорят, что из-за намерения украсить свое тело, а третий отвечают, что человек испытывал потребность в одежде, чтобы защитить себя от холода. На самом деле многих наверняка интересует вопрос, когда появилась одежда. Почему человечество почувствовало в ней потребность?

Ответить на эти и подобные вопросы поможет наука археология. Археологические находки показывают, что одежда появилась в самые ранние периоды развития человека (40-25 тысяч лет назад). Обувь появилась в более поздние периоды и встречается реже других элементов одежды.

Одежда – это не только средство удовлетворения естественных потребностей, но и образец практического искусства. Как и всем образцам прикладного искусства, ему свойственна направленность на красоту. Наряду с практической задачей защиты тела от различных внешних воздействий, особенно от жары и холода, оно имеет и такие эстетические функции, как украшение и красота. По этой причине, по мере развития общества и повышения эстетического вкуса людей, они все больше и больше внимания уделяют украшению одежды, и главное, чтобы они не повторялись.

Известно, что в древности человек находился под влиянием природы, а также животных. Он имел обыкновение наносить на свое тело землю, грязь и масло для защиты. Позднее к этим мазкам добавились растительные красители, и сложилась традиция украшать человеческое тело разными формами и цветами. В Галлии было принято продлевать время защитной оболочки нанесением на тело татуировок (инъекций различных красителей под кожу). Перья различных птиц, зубы, кости и шерсть убитых животных защищают тело, а также выполняют различные символические функции. Со временем он изобрел методы крепления, чтобы абстрагироваться от того, какая часть его тела покрыта определенным покрытием, и начал использовать их в качестве украшения.

Именно отсюда мы теперь знаем, что татуировки были первыми формами одежды, и даже после появления одежды из ткани они не остались незамеченными. Теперь они предстали как некий элемент платья и выполнили задачу придания ему красоты и эстетической ценности. Через некоторое время люди научились прядь пряжу и плести из нее ткань, татуировки, наносимые на тело, перекочевали на ткань и стали служить украшениями.



Украшения в исторических костюмах не только обозначали социальное происхождение, т. е. сословие владельца, но и выражали эстетический вкус человека, наряду с переносным значением. Со временем он совершенствовался, виды улама увеличивались, а его формы усложнялись. В частности, появились виды уламов, которые можно снимать и прикреплять к телу (браслеты, с прикрепленным или приспущенными рельефным украшением).

Форма человеческого тела также влияла на форму украшений, которые нужно было надевать и снимать. По этой причине украшения, которые носят на пальце и шее, имеют круглую форму. Таким образом, исторические факторы — внешняя среда, климат, времена года и т. д. — способствуют совершенствованию формы одежды. Социально-экономические факторы — историческое развитие, этническая принадлежность, религия, образ жизни, научно-техническое развитие и др.; человеческий фактор влияет пол, возраст, строение тела, психология и т.д. В этом смысле этапы развития каждой нации накладывают свой отпечаток на одежду людей. Эта ситуация также показывает, что платье меняется в зависимости от эпохи и стиля.

#### **Литература:**

1. Azimbayevna, D. G., & Vohidovna, X. X. (2021). FEATURES IN THE TRANSLATION OF MEDICAL TERMS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 470-474.
2. Vohidovna, H. X. (2023). LIBOS NOMLARIGA XOS BO'LGAN NUTQNING IJTIMOIY RIVOJLANISH OMILLARI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 814-819.
3. Vokhidovna, K. K. Teaching Foreign Languages at Preschools. International Journal on Integrated Education, 4(3), 237-239.
4. Vokhidovna, K. K. (2022). Psycholinguistic Basis for the Intensification of Foreign Language Teaching in Non-Linguistic Directions. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 121-126.
5. Vokhidovna, K. K. (2022). Use of Regional Materials in the Process of Teaching a Foreign Language. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 115-120.
6. Azimbayevna, D. G., Qizi, G. J. Z., & Vohidovna, X. X. (2021). Peculiarities Of Translating Medical Terms. Texas Journal of Medical Science, 2, 6-9.
7. Абдилоев, Ш. О. (2023). ЎЗБЕК, РУС, ТОЖИК ВА НЕМИС ТИЛЛАРИДАГИ ЗООНИМ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЎХШАШ ВА ФАРҚЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ. IQRO JURNALI, 3(1), 156-159.



8. Абдилоев, Ш. О. (2023). ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР—ХАЛҚ ҲАЁТИНИНГ ИНЬИКОСИ. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 1(2), 157-159.
9. Абдилоев, Ш. О. (2023). АЙРИМ УЙ ҲАЙВОНЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ТУРЛИ ХАЛҚЛАРДА МАЪНО ИФОДАЛАНИШИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 122-128.
10. Oxonjonovich, A. S. (2023). Peculiarities of Semantics of Phraseological Units with Zoonyms. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 17, 98-102.
11. Oxonjonovich, A. S. (2022). GERMAN PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A ZOONYM COMPONENT. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 239-244.
12. Oxojonovich, A. S. (2022). On the General Associative Aspects of Allegoric Symbols. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 424-428.
13. Oxojonovich, A. S., & Usmoilovich, A. Y. (2022). About the Problems of Language Teaching to Little Children. International Journal of Culture and Modernity, 14, 30-34.
14. Abdiloyev, S. O. (2022). Nemis tili darslarida frazeologizmlardan foydalanishning innovatsion usullari. Архив научных исследований, 2(1).





## KONCHILIK SOXASIDA ISHLAB CHIQARISH SANITARIYASI TALABLARI

**Ergashev Mahmud Axbaraliyevich**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali  
“Konchilik ishi” kafedra o’qituvchisi

**Sulxanov Diyorbek Axror o’g’li**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali,  
3f-21 YOKI guruh talabasi.

**Ashirmatova Iroda Mamasaid qizi**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali,  
3f-20 FQB guruh talabasi.

**Annotatsiya:** Ishlab chiqarish muhitining sanitariya-gigiyena parametrlari (tarkib, harorat, nisbiy namlik va havoning harakatchanligi, vibratsiya, ionlashtiruvchi nurlanishning hajmi, gamma-nurlanish ekvivalent dozasining kuchi, shovqin, tovush darajasi va b.) amaldagi sanitariya meyorlari va qoidalari talablariga javob berishi lozim.

**Kalit so’zlar:** Atmosfera, changlar, gazlar, kislarod, tozalangan havo, trinitrotoluol, radiaktiv rudalar, sanitariya xonalari.

### ***Ochiq konlar atmosferasiga chang va gazlar kelishini kamaytirish***

Ochiq konlar atmosferasiga changlar va gazlar kirishini kamaytirish bo‘yicha tadbirlar kon ishlarining pasayishi va qazilgan jooning atrof-muhit bilan birga tabiiy havo almashinishini yomonlashuvi mobaynida ochiq kon atmosferasidagi sanitariya-gigiyena holatining o‘zgarishi prognozidan kelib chiqqan holda loyiha bilan aniqlanadi, shunga bogliq holda ochiq kon va uning tashqarisidagi atmosferaga kiruvchi chang va gazlarning tartibga solinishining konkret texnologik, texnik va tashkiliy usullari tanlanishi lozim.

Radiatsiyali xavfli ishlab chiqarishlar hisoblangan ochiq konlarda chang va gazlarni ochiq kon atmosferasiga va ular chegarasidan tashqariga tushishini tartibga solishni tanlash radioaktiv aralashmalarning ishchi zonalari havosida yigilib qolishi mumkinligini hisobga olgan xolda amalga oshirilishi kerak.

Changlar, zaharli gazlar va agressiv suvlarni bostirish yoki tutib olish bevosita zararli aralashmalarning ajralish joylarida amalga oshirilishi kerak.

Chang hosil bo‘lishini kamaytirish uchun avtomobil yo‘llari va ekskavator zaboylari sistemali ravishda sugorilishi, boglovchi qo‘sishchalarining bu hollarda qo’llash esa sanitariya nazorati organlari tomonidan kelishilgan bo‘lishi lozim.



Chiqindi gazlar tarkibi meyeriy talablarga muvofik bo‘lmasa, ichki yonish dvigateli bo‘lgan mashinalar va jihozlarning ochiq konda ishlashi taqilanganadi.

Ochiq konlar atmosferasini foydali qazilmalar yonishidan hosil bo‘lgan gazlar bilan ifloslanishining oldini olish uchun yonginlarni bartaraf etish tadbirlarini nazarda tutadigan profilaktik yonginga qarshi tadbirlar ishlab chiqilishi va muntazam o‘tkazilishi lozim.

***Karyerlarni (ochiq konlarni) ifloslangan atmosferasida ishlashda  
xodimlarning xavfsizligini ta’minlash***

Ish joylari havosi kislorod miqdori bo‘yicha belgilangan meyorlarga muvofiq bo‘lmasa, xodimlarning xavfsizligi ishlarni to‘xtatish yoki ishchilarni havoning meyoriy tarkibi bilan ta’minlash, zararli aralashmalarning tarkibi bo‘yicha esa - ishchilarni tozalangan havo bilan ta’minlash, aralashmalarni meyoriy darajalargacha aralashtirish va cho‘ktirilish, ifloslangan atmosferada ish vaktini chegaralash yoki ishlarni qisqartirish yo‘li bilan ta’minlanishi kerak.

Ishchilarni tozalangan havo bilan ta’minlash statsionar (kon mashinalari va jihozlari kabinalarida o‘rnataladi) yoki avtonom individual (kon mashinalari va jihozlari kabinalaridan tashqarida) filtrlovchi-sovutadigan qurilmalar yordamida amalga oshirilishi kerak, ularning filtrlovchi-yutadigan elementlari ishchi zonasiga havosida zararli aralashmalarning konkret tarkibi uchun tanlanishi kerak.

Tozalangan havo bo‘yicha filtrlovchi-sovutuvchi qurilmalarning samaradorligi belgilangan meyorlarga muvofiq xodimlarning toza havoga bo‘lgan ehtiyojiga mos kelishi kerak.

Filtrlovchi-yutuvchi elementlar qo‘llanish sohasini ko‘rsatgan holda pasportga ega bo‘lishi lozim.

Filtrlovchi-sovutuvchi qurilmalardan foydalilanadigan ochiq konlarda ularga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash tashkil etilgan, individual avtonom joylarda ularni qabul kilish va xodimlarga berish tashkil etilgan bo‘lishi kerak.

Aralashmalarni aralashtirish va cho‘ktirish, shu jumladan radioaktiv aralashmalarni ochiq konning alohida zonalarida ularning konsentratsiyalarini qisqartirish uchun ventilyator-sugorish yordamida amalga oshirilishi mumkin. Konkret sharoitlarda ularning qo‘llanilishining maqsadga muvofiqligi o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra korxona bosh muhandisi tomonidan belgilanadi.

Qazib olingan joyning atrof-muhit bilan havo almashishida (shtil yoki inversiya, harakatsiz zonalar va boshqalari) ochiq konlar atmosferasining ifloslanishi belgilangan meyerlardan oshsa, kon transport jihozining filt-ventilyatsiyali qurilmalarsiz ishga tushirilishiga ruxsat berilmaydi, amaldagi qurilmalarning ular bilan jihozlanishi



muddatlari esa «Sanoatkontexnazorat» Davlat inspeksiyasi organlar bilan kelishilishi lozim.

Ochiq kon ish joylari havosining sanitariya-gigiyena parametrlari meyoriy miqdorlarga keltirilguncha, amaldagi qoidalarning 6.8.1 bandida nazarda tutilgan odam organizmiga aralashmalarning zararli ta'siridan himoya va profilaktika qilishning boshqa choralar qo'llanilishi kerak.

Istalgan holatda nafas olish organlarini chang va radioaktiv aerozollardan himoya qilish bo'yicha filtrli-ventilyatsiyali qurilmalari bo'lmasa, ochiq konlardagi barcha ishchilar klapansiz va klapanli respiratorlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim, ularning turlari esa ish joylardagi mikroklimat sharoitlariga bogliq holda sanitariya nazorati organlari bilan kelishilgan holda tanlanadi. Bunday sharoitlarda respiratorsiz ishlashga ruxsat etilmaydi.

### ***Sanitariya – maishiy xonalar***

Har bir ochiq konda yoki bir qancha yaqin joylashgan ochiq konlarda amaldagi qurilish meyorlari va koidalariga muvofiq, ochiq konning to'liq rivojlanishida ishchi xodimlar soniga mo'ljallangan erkakalar va ayollar uchun alohida bo'limli sanitariya-maishiy xonalar jihozlangan bo'lishi lozim.

Sanitariya-maishiy xonalar tarkibiga quyidagilar kirishi kerak: ishchi va doimiy kiyimlar uchun aloqida garderoblar (shkaflar), ishchi kiyimlarni quritish va changsizlanishi uchun xonalar, dushlar, kiyinish, kir yuvish xonalari, maxsus kiyim va oyoq kiyimlarni ta'mirlash ustaxonalar, oyoq kiyimni tozalash va yuvish xonalari, ichimlik suvini qaynatish stansiyasi, idishlar xonasi, ayollarning shaxsiy gigiyenasi xonasi, tibbiy bo'lim, oshxona.

Sanitariya-maishiy xonalar shamol esayotgan tomondan foydali qazilmalar ochiq omborlari, maydalash-sortirovka qilish fabrikalari, estakadalar va boshqa changlanadigan uchastkalardan kamida 50 metr, ammo asosiy ishlab chiqarish binolaridan 500 metrdan uzok bo'lмаган masofada joylashishi kerak.

***1. Sanitariya-maishiy xonalarni karyer bortidan uzoqroq masofada joylashtirishga faqat ishchilarini transport bilan ish joyiga olib borib, olib kelinsagina ruxsat etiladi.***

***2. Uncha katta bo'lмаган karyerlarda sanitariya nazorati organlari bilan kelishilgan holda oddiy tipdag'i sanitariya-maishiy xonalar qurishga ruxsat etiladi.***

Garderob va dush xonalari shunday o'tkazish xususiyatiga ega bo'lishi kerakki, bunda ishchilar o'ta ko'p sonli smenda yuvinish va qayta kiyinish uchun 45 daqiqadan ko'p bo'lмаган vakt sarflasin.





Har bir korxonada maxsus kiyimlarni yuvish va maxsus kiyim va oyoq kiyimlarni ta'mirlash tashkil etilishi lozim.

Yuqori radioaktiv rudalarni qazib olish bilan band bo'lgan xodimlar sanitariya-maishiy xizmat ko'rsatilganda alohida ajratilishi va teri qatlamlarining tozaligini radiometrik nazorat orqali tekshirilishi kerak. Bunday xodimlarining maxsus kiyimlarini haftada kamida 1 marta yuvish kerak.

Doimiy trinitrotoluol bilan ishlaydigan xodimlar uchun har smenada yangi ichki kiyim berilishini, baxorgi-yozgi davrda esa kiyim va oyok kiyimni har smenada changdan tozalashni tashkil qilish kerak.

Bunday maxsus kiyimlarni saqlash va yuvish boshqa xodimlar maxsus kiyimlaridan aloxida tarzda amalga oshirilishi kerak.

Dush va hammomlar 1 soatda har bir dush setkasiga 500 l suv hisobida sovuq va issiq suv bilan ta'minlanishi va rostlash kranli aralashtiruvchi qurilmalarga ega bo'lishi lozim.

Rostlash kranlari sovuq va issiq suv ko'rsatgichlariga ega bulishi kerak. Bug va issiq suv uzatuvchi quvurlar poldan 2 m balandlikda to'silgan bo'lishi kerak.

Yuvish uchun ishlatiladigan suvning sifati sanitariya nazorati organlar bilan kelishiladi.

Dushlarda va yechinish va kiyim saqlash bo'limlari bo'lgan xonalarda pollar namga mustahkam va sirpanmaydigan yuzaga ega bo'lishi, devorlar va to'siqlar esa kamida 2,5 m balandlikda yengil tozalangan va issiq suv bilan yuvilgan oqovalarni o'tkazadigan namga mustahkam materiallar bilan qoplanishi kerak. Bu xonalarda albatta pol va devorlarni yuvadigan shlangli kranlar bo'lishi lozim.

Barcha sanitariya-maishiy xonalar sanitariya meyorlari chegarasida zararli aralashmalar mikdorini ta'minlaydigan oqish-surish ventilyatsiyasiga ega bo'lishi lozim.

Dush xonasi va undagi jixozlar har smenada dezinfeksiyalovchi vositalar (xloramin, xlor ohaki va b.) dan foydalangan holda yigishtirilishi kerak.

Ma'muriy xonalarni yuvish har kuni, garderob, idish saqlaydigan va respirator xonalari esa har smenada amalga oshirilishi lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. Димитриев А.П. Разрушение горных пород. М.: МГГУ, 2004.
2. Певезнер М.Е., Иофис М.А., Попов В.Н. Геомеханика. Учебник. М.: МГГУ, 2005.
3. Баклашов В.И. и др. Геомеханика Учебник. МГГУ. Основы геомеханики. 2004. 1-2-т тома.





4. Баклашов В.И., Давиденко Б.Ю. и др. Геомеханика лабораторный практикум. МГГУ 2004.
5. Баклашов И.В., Картозия Б.А. Механика горных пород. М.: Недра, 1975. Новик Г.Я., Кузяев Л.С. Сборник задач и упражнений по основам физики горных пород. М.: МГИ, 1983.
6. Новик Г.Я. Лабораторные работы по физике горных пород. М.: МГИ, 1983.
7. Ржевский В.В., Новик Г.Я.. Основы физики горных пород. М.: Недра, 1984.



## BINOLARNING KONSTRUKTIV SHEMALARI

N.Mamajonova

Andijon iqtisodiyot va qurilish institute, O'zbekiston

Electron pochta: [akhmadjon00@mail.ru](mailto:akhmadjon00@mail.ru)

**Izoh:** Ushbu maqolada binolarning konstruktiv shemalari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** qurilish, loyihalash, qurilish jarayonlari, tehnologik usullar,bino, inshoot

**Аннотация:** В данной статье показаны конструктивные схемы строительства зданий.

**Ключевые слова:** строительство, проектирование, строительные процессы, технологические приемы, здание, сооружение.

**Annotation:** This article shows structural schemes for the construction of buildings.

**Key words:** construction, design, construction processes, technological methods, building, structure.

**Kirish.** Qurilish jarayonlari, bino va inshootlarni barpo etishda binolarning konstruksiyalarini bilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yo'nalishni o'qitishdan maqsad qurilish, montaj va maxsus ishlarning ketma-ketligini bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi, to'suvchi, pardozlash va boshqa konstruktiv elementlarini barpo etishni va kerakli xujjatlar va loyihibar bo'yicha ishlay olishini o'rgatishdir.

### 1.Turar-joy binolarining konsturktiv sxemalari.

**Turar joy binolarining asosiy konstruktiv elementlariga** poydevorlar, devorlar, qavatlararo yopmalar, alohida tayanchlar, tom, deraza, eshiklar, zinalar hamda ichki to'siq (parda) devorlar kiradi.

Birinchi qavatning poli sathidan pastda joylashgan konstruktiv elementlar-poydevor, erto'la, texnik maqsadlarga mo'ljallangan erto'la devorlari binoning er osti qismi hisoblanadi. Birinchi qavat poli sathidan balandda joylashgan konstruktiv elementlar binoning er usti qismini tashkil qiladi.

**Poydevorlar** binoning er osti qismi bo'lib, ular bino og'irligini o'ziga qabul qilib, uni zaminga uzatuvchi konstruksiyadir.

**Devorlar** o'z vazifasiga va joylashishiga ko'ra ichki va tashqi to'siq, ya'ni xonani tashqi muhit ta'siridan himoyalovchi yoki xonalarni bir-biridan ajratib turuvchi bo'lib, bir vaqtning o'zida ular yuk ko'taruvchilik vazifasini ham bajaradi. Devorlarning yuk ko'taruvchi, o'zini-o'zi ko'taruvchi va osma turlari bor.





Binolarni kichik-kichik xonalarga ajratuvchi yuk ko'tarmaydigan devorlarga **pardevor (peregorodka)** deyiladi. Pardevorlar odatda poydevorsiz quriladi.

**Alohida tayanchlarning** (yuk ko'taruvchi vertikal elementlar-ustunlar, tirgovuch, sinch) ning vazifasi qavatlararo yopmalardan tushadigan yuklarni poydevorga uzatishdan iborat.

**Qavatlararo yopmalar** binoning ichki bo'shlig'ini qavatlarga ajratadi. Ular devorlarga (g'ishtli, yirik panelli, yirik blokli), rigel yoki progonlarga, ayrim hollarda to'g'ridan-to'g'ri ustunlarga mahkamlanadi. Qavatlararo yopmalar doimiy va vaqtinchalik yuklarni ko'tarish bilan birga devorlarni o'zaro bog'laydi, ularning ustuvorligini ta'minlaydi va butun binoning fazoviy bikrligini oshiradi.

**Tomlar** bino va uning konstruksiyalarini atmosfera ta'sirlaridan himoya qiluvchi elementdir. Ular tom yopish uchun ishlatilgan ashyo va uni ko'tarib turuvchi konstruksiyalardan iborat bo'ladi. Tomlar konstruktiv tuzilishi jihatidan chordoqli va chordoqsiz, ya'ni tekis (o'rama ashylardan, mastikali) tomlarga bo'linadi.

**Zinalar** bino qavatlarini bir-biriga o'zaro bog'laydi va odamlarni binodan evakuatsiya qilish vazifasini ham o'taydi. Zinalar joylashgan maydonga zina katagi deyiladi. Zinalar ikki konstruktiv element-zinaning ikkita maydonchasi (sahni) va ular orasidagi qiya joylashgan qadam (marsh) dan iborat bo'ladi. Zina qadamida harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qadam chekkasiga himoya to'sig'i o'rnatiladi.

**Derazalar** xonalarga yorug'lik, quyosh nuri tushishi hamda xonalarni shamollatish uchun xizmat qiladi. Ular deraza o'rni, deraza kesakisi va deraza tavaqalaridan iborat bo'ladi.

**Eshiklar** xonalarni bir-biri bilan bog'laydi, shuningdek binoga kirish va undan chiqish yo'li hisoblanadi. Ular devordagi yoki parda devordagi eshik o'rni, eshik kesakisi va tavaqasidan iborat bo'ladi.

Turar joy binolarida bu elementlardan tashqari boshqa konstruktiv elementlar, ya'ni dahliz, ayvon, eshik usti soyaboni va boshqalar ham bo'ladi.

## **2. Binolarning konstruktiv turlari. Binoning konstruktiv sxemalari.**

Binoning konstruktiv echimini loyihalashning boshlang'ich bosqichida konstruktiv va qurilish tizimlari hamda konstruktiv sxemalarini aniqlashdan iborat.

**Konstruktiv tizim** bu – o'zaro bog'langan, binoning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarining birgalikda bo'lib uning mustahkamligini, qattiqligini, ustuvorligini ta'minlaydi. Bino yuk ko'taruvchi konstruksiyalari o'zaro bog'langan vertikal va gorizontal elementlardan tashkil topadi.

**Gorizontal yuk ko'taruvchi** konstruksiyalar tomlar va orayopmalar bo'lib vertikal yuklarni qabul qiladi va vertikal yuk ko'taruvchi konstruksiyalarga uzatadi.



Gorizontal yuk ko'taruvchi konstruksiyalar bino qattiqlik diafragmasi vazifasini bajaradi.

**Vertikal yuk ko'taruvchi konstruksiyalar turli xilda bo'ladi:**

- 1) Sterjenli tekis kesimli (sinchli)
- 2) Tekislikli (devorli, yirik blokli)
- 3) Hajmiy fazoviy (hajmiy blokli)

**Vertikal yuk ko'taruvchi konstruksiyalar binolarni 5 ta asosiy tizimga bo'ladi:**

- 1) Sinchli
- 2) Sinchsiz ya'ni devorli
- 3) Hajmiy blokli
- 4) Tanali (stvolli)
- 5) Qobiqli (obolochkali)

Fazoviy rama sinchli tizim ko'p qavatli seysmik ustuvor bino (9-10 dan ko'p kavatli) larda, ishlab chiqaruvchi oddiy qurilish sharoitli binolarda qo'llaniladi.

**Sinchli tizim**-sanoat va jamoat binolarida keng qo'llanila-di, turar joy qurilishida esa iqtisodiy bo'limganligi sababli kam qo'llaniladi.

**Sinchsiz tizim**- turar joy qurilishida eng ko'p qo'llaniladi. Ular 30 qavatgacha bo'lgan binolarda qo'llanilishi mumkin.

**Hajmiy blokli tizim** – binolar ayrim yuk ko'taruvchi ustun (stolba) lar va ustustiga o'rnatilgan hajmiy bloklardan, oddiy va murakkab grunt sharoitida quriladigan 12 qavatgacha balandlikli binolarda qo'llaniladi. Ustunlar bir-biri bilan ixcham (gipkiy) va qattiq svyazlar bilan biriktiriladi.

**Tanali (stvolli) tizim** – 16 qavatdan baland bo'lgan binolarda qo'llaniladi.

**Qobiqli tizim** – unikal baland turar joy, ma'muriy va ko'p funksional maqsaddagi binolarda qo'llaniladi.

**Sinchli binolarda 3 ta konstruktiv sxema qo'llaniladi:**

- 1) Bo'ylama rigelli
- 2) Ko'ndalang rigelli
- 3) Rigelsiz

**1. Karkassiz binolarning fazoviy bikrliyi.** Karkassiz binolaming ichki devorlari va ora yopmalari binoning ichini vertikal va gorizontal nagruzkalami qabul qila oladigan fazoviy o'zgarmas yacheikalarga ajratadi. Karkassiz bino yetarli darajada turg'un va fazoviy.

**Sinchsiz tizimlarda 5 ta konstruktiv sxema qo'llaniladi:**



1-sxema: ko‘ndalang devor qadami kichik bo‘lgan paytda ichki devorlarni kesishgan holatda joylashishi;

2-sxema: ko‘ndalang yuk ko‘taruvchi devor qadamining o‘lcham (katta va kichik) larini almashishi va ayrim bo‘ylama qattiqlik devori bilan;

3-sxema: ko‘ndalang yuk ko‘taruvchi devorlarlar kam joylashgan va ayrim bo‘ylama qattiqlik devorli (katta qadamli devor);

4-sxema: bo‘ylama tashqi va ichki yuk ko‘taruvchi devorli va kamroq joylashgan ko‘ndalang devorli qattiq diafragmali;

5-sxema: tashqi bo‘ylama yuk ko‘taruvchi devorli va kamroq joylashgan ko‘ndalang qattiqlik

**Poydevor** deb binodan tushayotgan yuklarni qabul qilib olib asos gruntiga uzatuvchi konstruktiv elementga aytildi. Agar bino ostida erto‘la quriladigan bo‘lsa poydevor himoya konstruksiya vazifasini ham o‘taydi. Poydevorlar quyidagi asosiy talablarni qanoatlantirishi kerak:

- 1.Etarli mustaxkamlikka, ustuvorlikka ega bo‘lishi kerak;
- 2.Grunt va agressiv suvlar ta’siriga qarshilik ko‘rsata oladigan bo‘lishi kerak;
- 3.Atmosfera ta’sirlariga chidamlı (muzlamaydigan) bo‘lishi kerak;
- 4.Binoning uzoq muddat ishlashiga mos kelishi kerak;
- 5.Tayyorlashda sanoatlashgan va iqtisodiy bo‘lishi kerak.

Poydevor materiali sifatida yog‘och, xarsang tosh, xarsang beton, temir beton, beton, ayrim hollarda (shpuntlarda) metall ishlatiladi.

Konstruktiv sxemalari bo‘yicha poydevorlar lentasimon, ayrim turuvchi, tekis va qoziq (svay) larga bo‘linadi. Poydevorning shakli va hajmi asosiy parametr bo‘lgan uning qo‘yilish chuqurligiga bog‘liq. Poydevorning qo‘yilish chuqurligi bir nechta omillarga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni binoning qo‘llanilishiga, hajmiy-rejaviy va konstruktiv echimiga, asos sifatiga, atrofidagi qurilishlarga, relefga, qabul qilingan poydevor konstruksiyasiga, qurilish usullariga bog‘liq bo‘ladi. Birinchi navbatda qo‘yilish chuqurligi zamin grunti sifatiga, grunt suvlari sathiga va gruntning muzlash chuqurligiga bog‘liq bo‘ladi.

Bino devorlarini kapilyar namlikdan saqlash maqsadida poydevorlar vertikal va gorizontal gidroizolyasiya qilinadi. Bajarilish usuliga qarab gidroizolyasiyalar bo‘yaladigan, suvaladigan (sementli, asfaltli), suyuq asfaltli, elimlanadigan (o‘rama materiallar)dan va qobiq (obolochka)li (metalldan) qilinadi.

### Lentasimon poydevorlar.



Lentasimon poydevorlar bino devori yoki qator ayrim tayanchlari ostiga quriladi. 1-holatda poydevorlar uzliksiz er osti devor ko‘rinishida bo‘ladi. 2-holatda temir-beton kesishgan to‘sinalar ko‘rinishida bo‘ladi.


Lentasimon poydevorlar faqat yuk ko‘taruvchi konstruksiya emas, balki erto‘la xonalarining himoya konstruksiyasi vazifasini ham o‘taydi. Lentasimon poydevorlar 12 qavat balandlikkacha bo‘lgan turar-joy qurilishida qo‘llaniladi. Lentasimon poydevorlar to‘g‘ri burchakli, trapetsiya, zina ko‘rinishli, to‘g‘ri burchakli yostiqli (podushka) turlarga bo‘linadi.

Lentasimon poydevorlar xarsang-beton, xarsang tosh-beton va temir-betondan qilinadi. Ular yaxlit, yig‘ma va yig‘ma-yaxlit usullarida quriladi.


Bino devorlarida yuqorida sanab o’tilgan elementdaridan tashqari quyidagi elementlar ham mavjud:

